



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 320 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	



ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA HALOL STANDARTLARINI QO‘LLASHNING NAZARIY, USLUBIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Azizova Saodat Xabibulloyevna

Mustaqil tadqiqotchi

Buxoro davlat universiteti

E-mail: saodatazizova01@gmail.com

ORCID: 0009-0008-1849-0059

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada halol turizm tushunchasining nazariy, uslubiy va konseptual asoslari chuqur tahlil qilinib, uning ziyorat turizmi bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqotda “halol turizm” atamasining mazmun-mohiyati, xalqaro va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan turli yondashuvlar orqali sharhlab berilgan. Halol turizm xizmatlarini tashkil etishda islomiy huquq (fiqh), halol iste‘mol nazariyasi, barqaror turizm yondashuvi, ijtimoiy ishonch, xizmat sifati, marketing, identitet va madaniy qadriyatlar singari 10 ta nazariy asos tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston misolida halol xizmatlar infratuzilmasini shakllantirish, halol sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish va ziyorat turizmida halol tamoyillarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ziyorat, turizm, standart, ziyorat turizmi, halol turizm, halol turizm standarti, ekologik turizm, turizm turlari.

Abstract: This scientific article provides an in-depth analysis of the theoretical, methodological, and conceptual foundations of halal tourism, highlighting its interconnection with pilgrimage tourism. The study examines the essence of the term "halal tourism" through various approaches developed based on international and national experiences. The organization of halal tourism services is analyzed through 10 theoretical foundations, including Islamic law (fiqh), halal consumption theory, sustainable tourism approach, social trust, service quality, marketing, identity, and cultural values. Additionally, the article presents recommendations for developing halal service infrastructure, improving halal certification systems, and implementing halal principles in pilgrimage tourism, using Uzbekistan as a case study.

Key words: pilgrimage, tourism, standard, pilgrimage tourism, halal tourism, halal tourism standard, ecological tourism, types of tourism.

Аннотация: В данной научной статье глубоко проанализированы теоретические, методологические и концептуальные основы понятия халяль-туризма, освещена его взаимосвязь с паломническим туризмом. В исследовании сущность термина «халяль-туризм» интерпретируется с помощью различных подходов, разработанных на основе международного и национального опыта. При организации услуг халяльного туризма анализируются 10 теоретических основ, таких как исламское право (фикх), теория халяльного потребления, подход к устойчивому туризму, социальное доверие, качество услуг, маркетинг, идентичность и культурные ценности. Также в статье на примере Узбекистана разработаны рекомендации по формированию инфраструктуры халяльных услуг, совершенствованию систем сертификации халяль и внедрению принципов халяль в паломнический туризм.

Ключевые слова: паломничество, туризм, стандарт, паломнический туризм, халяльный туризм, стандарт халяльного туризма, экологический туризм, виды туризма.

KIRISH

Bugungi kunda halol mahsulotlar butun dunyo bo‘ylab ko‘plab insonlar hayot tarzining ajralmas bir qismiga aylanganligi bejiz emas. Ta’kidlash lozimki, halol tushunchasi faqatgina oziq-ovqat mahsulotlari bilan emas, balki nooziq-ovqat mahsulotlari bilan ham bog‘liq sanalib, ularga kosmetika vositalari, farmatsevtika mahsulotlari, charm buyumlar, atirlar, shuningdek, bank sohasi, ko‘ngilochar xizmatlar, turizm va logistika kabi xizmatlar tarmoqlari ham kiradi [13].

Globalashuv davrida halol turizm mahsulotlari faqatgina musulmon sayyohlar auditoriyasiga emas, balki sog‘lom, axloqiy va ekologik mas’uliyatli hayot tarzini tanlagan musulmon bo‘lmagan iste‘molchilar guruhlarini ham qondirishga yo‘naltirilmoqda. Bu esa halol turizm tushunchasini diniy doiradagi yondashuvdan tashqariga olib chiqib, uni universal qadriyatlar — sog‘liq, halollik, ijtimoiy adolat, madaniy hurmat va ekologik barqarorlik singari jihatlar bilan uyg‘unlashtiradi.



Shu munosabat bilan, zamonaviy halol turizm sanoatining asosiy vazifalaridan biri — keng jamoatchilik, xususan, turli e'tiqod vakillari orasida halollik qadriyatlarini va tamoyillarining mazmun-mohiyatini chuqurroq tushuntirish, halol turizmning boshqaruv salohiyatini, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, iste'molchilar tomonidan ushbu mahsulotlar ustunligining tan olinishi jarayonini osonlashtirishdir.

Halol turizm atamasi ilmiy adabiyotlarda yangi tushuncha hisoblanadi. Ilgari esa ko'proq "islomiy turizm" atamasi ishlatib kelingan [1]. Halol sanoatining barcha tarkibiy qismlari, jumladan, halol sayohat (turizm) sektori ham iste'molchilarga yuqori sifatli va foydali mahsulot hamda xizmatlarni taqdim etib, halol sanoat ilgari surayotgan qadriyatlar — hayvonlarga nisbatan mehr-muruvvat, ijtimoiy mas'uliyat, atrof-muhitga do'stona munosabatda bo'lish, yerga g'amxo'rlik qilish, iqtisodiy va ijtimoiy adolat, axloqiy normalar — tufayli bu tushuncha musulmon bo'lmagan iste'molchilar segmenti tomonidan ham hayot tarzi sifatida keng miqyosda qabul qilinmoqda [19].

Musulmonlarning Global Sayohat Indeksi (GMTI) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab musulmon sayohatchilarning umumiy soni 2023-yilda 140 million nafarni tashkil etgan bo'lsa, hisob-kitoblarga ko'ra, bu ko'rsatkich 2028-yilga borib 230 millionga yetishi kutilmoqda, bunga sarflanadigan mablag' miqdori esa 225 milliard dollar atrofida bo'lishi mumkin [27].

Islomiy davlatlarda [21], xususan, Indoneziya kabi demokratik mamlakatlarda [6] islomiy huquq qoidalariga ehtiyoj mavjudligi umumiy saylovlar jarayonida va qonunchilik palatasida qonunlar qabul qilinishi kabi huquqiy-siyosiy jarayonlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq islom huquqi zamonaviy va fundamentalistik yondashuvlar orasidagi ikki qarama-qarshi nuqtada joylashgan bo'lib [26], deyarli nihoyasiz munozarali holatga sabab bo'lishi mumkin [7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

H. M. Awan, A. N. Siddiquei, Z. Haider, S. Miskam, N. Othman, N. Hamid, A. Hussain, K. El-Alami tadqiqotlari mohiyatiga ko'ra, "halol" so'zining lug'aviy ma'nosi "joiz" yoki "qonuniy" bo'lib, u shariatga muvofiqlikni anglatadi. Shu bilan bir qatorda, bu ta'riflar ayrim mamlakat qonunlari, xususan, belgilangan savdo qonunlari, hayvonlarga nisbatan munosabatlar singari jihatlar bilan ham uyg'unlashadi. Biroq barcha qonuniy mahsulotlar ham halol hisoblanavermaydi (masalan: spirtli ichimliklar, cho'chqa go'shti, qimor) [3].

Mahalliy tadqiqotchilardan M. Zaynobbiddinova va A. Sativaldiyev halol sertifikatlash jarayonida vujudga keladigan muammolarni o'rganib, o'z yondashuvlari asosida yechimlar taklif etgan. Jumladan: eksport muammolari, malakasiz xodimlarning mavjudligi, halol sertifikatlash jarayoni natijalaridan marketing maqsadlarida foydalanish, shuningdek, halol sertifikatlash xizmatlarini ko'rsatadigan faoliyat jarayoni qoniqsiz tashkilotlarning mavjudligi singari muammolar xususida ilgari surilgan tavsiyalar e'tiborlidir [15].

Halol restoranlarga ta'sir etuvchi omillar tavsifini o'rgangan Sh. Sharifova O'zbekistonning Buxoro shahridagi halol sertifikatlangan oziq-ovqat korxonalarini va restoranlari uchun Halolga Muvofiqlik Reytingining (HCR) sakkizta komponentini aniqlagan. Ushbu komponentlar bir nechta turli standartlarda (MS1500:2019, MS2610:2015, ISO22000), qoidalarda (Oziq-ovqat gigiyenasi reglamenti — 2009), reyting tizimida (Crescent Muslim Friendly Hotel reytingi, BeSS sertifikati — Malayziya) va avvalgi tadqiqot ishlari asosida aniqlangan. Muallif fikriga ko'ra, mazkur komponentlar halol sertifikatiga ega oziq-ovqat korxonalarini va restoranlarning halolga rioya qilish bo'yicha eng yaxshi amaliyotini aks ettiradi. Komponentlarni tanlashni asoslash uchun tegishli sohalar bo'yicha 17 nafar ekspertning fikrlari to'planganligi e'tiborlidir [22].

Indoneziya mamlakatining turizmni rivojlantirish tajribalari va ushbu tajribalardan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini o'rgangan N. Yuldoshev [18] halol va smart turizm destinatsiyalarining imkoniyatlari tahlillaridan kelib chiqqan holda turizm rivojlanishining bir qator omillarini o'rganib chiqqan.

Mintaqada ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o'rgangan Sh. Naimova fikricha: "Ziyorat turizmini rivojlantirishda an'anaviy usul va vositalar muqaddas joylarni jozibali ziyorat yo'nalishlariga aylantirish, turistik xizmatlarning sifati va salohiyatini oshirish, halol turizm konsepsiyasini rivojlantirish kabi jihatlarga asoslanadi. Biroq turistik faoliyatni zamonaviy yondashuvlar asosida diversifikatsiya qilish zarurati ortib bormoqda. Xususan, ziyorat turizmini ekologik turizm, sog'lomlashtirish turizmi, gastronomik turizm va madaniy turizm bilan uyg'unlashtirish, innovatsion xizmat turlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida ziyorat turizmini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda" [10].

B. N. Navruz-zoda hamda S. N. Najmiddinov [16] Buxoro viloyati turizm potensialini rivojlantirishda ziyorat turizmining ahamiyatini chuqur tadqiq etishgan. F. Abdusalomova va O. Astanakulov [2] turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmat sifati oshirish va innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari muhokamasi jarayonida Buxoro viloyatida turizm rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari tahlil qilishgan hamda bu jarayonda halol turizmning o'rnini aniqlashtirishga harakat qilishgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada sifatli tadqiqot yondashuvi (qualitative approach) asosida ko'p sonli manbalarga tayanilgan nazariy-adabiy tahlil, empirik tahlillar va konseptual model ishlab chiqish usullari uyg'unlashtirilgan. Shuningdek, tadqiqotda deduktiv yondashuv, ya'ni umumiy nazariyani konkret holatlarga tatbiq etish asosida ilmiy asoslar tizimlashtirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarning nazariy asoslari, shubhasiz, birinchi navbatda islom dini qoidalariga tayanadi. Shuningdek, tadqiqotlar natijasida ziyorat turizmini halol standartlar asosida rivojlantirishning 10 ta nazariy asoslari aniqlangan (1-jadval).

1-jadval. Ziyorat turizmini halol standartlar asosida rivojlantirishning nazariy asoslari tahlili

T/r	Nazariy asoslar	Mazmuni	Mualliflar	Yil	Manba
1	Fiqh (Islomiy huquq)	Halol-harom tushunchasi, safar va ibodat qoidalari	Imom Buxoriy, Al-G'azzoliy, Abu Hanifa, Imom Shofey	IX–XI asrlar	Qur'on, Hadis, Al-Risola
2	Halol turizm konsepsiyasi	Turizmning muvofiq xizmatlar asosida tashkil etilishi	M. Battour, M. Ismail	2014	Halal Tourism: Concepts, Practices and Challenges
3	Madaniy-diniy qadriyatlar nazariyasi	Turizmga diniy qadriyatlar va madaniyat uyg'unligi	D. Timothy, D. Olsen	2006	Tourism, Religion and Spiritual Journeys
4	Halol iste'mol nazariyasi	Musulmon iste'molchilar faqat halol mahsulot va xizmatlarni tanlaydi	K. Bonne, W. Verbeke	2008	Religious values informing halal meat production and consumption – British Food Journal
5	Barqaror turizm nazariyasi	Diniy joylarning ekologik va iqtisodiy jihatdan barqarorligi	UNWTO, B. Bramwell, B. Lane	1993–2020	Sustainable Tourism: An evolving global approach
6	Ijtimoiy ishonch nazariyasi	Sayyohlar halol xizmatlarga nisbatan ko'proq ishonch bildiradi	R. Morgan, S. Hunt	1994	The Commitment-Trust Theory of Relationship Marketing – Journal of Marketing
7	Servis sifati nazariyasi	Sifat — halol muhit, ishonch, javobgarlikka asoslanadi	A. Parasuraman, V. Zeithaml, L. Berry	1988	SERVQUAL: A multiple-item scale for measuring consumer perceptions of service quality
8	Identitet nazariyasi	Sayyoh o'z diniy identitetiga (diniy mansublik) mos xizmatni izlaydi	Daphna Oyserman	2009	Identity-Based Motivation: Implications for Health and Education
9	Islomiy-iqtisodiy nazariya	Turizm — shariat asosida iqtisodiy faoliyat bo'lishi kerak	M. Umer Chapra	1992	Islam and the Economic Challenge
10	Halol marketing nazariyasi	Halol xizmatlar diniy qadriyatlarga asoslangan brending orqali ilgari suriladi	J. A. Wilson, L. Liu, M. Hollensen	2013	Strategic marketing management for the Halal food industry – Journal of Islamic Marketing

Xalqaro olimlardan H. Pamukcu va M. Sariisik [20] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar halol konsepsiyasiga asoslangan joylashtirish muassasalarida mijozlarning qoniqish darajasini oshirish, halol turizmni qo'llab-quvvatlash va shu yo'nalishda standartlashtirish taklifini ilgari surish nuqtai nazaridan o'ziga xosdir. Mazkur tadqiqotlarning original ekanligi, fikrimizcha, amaliyot sohasi bilan bir qatorda nazariy soha uchun ham ahamiyatga ega bo'lib, joylashtirish xizmatlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan standartlashgan yondashuvni taqdim etishi muhim hisoblanadi.



Shuningdek, A. K. Jaelani [12] halol turizm menejmenti mavzusida tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, S. Nuraini [17] Osiyo mamlakatlarida halol turizm rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida halol oziq-ovqatlarni tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar va amaliyot jarayonlarini taqqoslagan.

M. S. E. Azam, M. A. Abdullah va D. A. Razakning [4] ilmiy izlanishlari halol turizm sanoatiga, shu bilan birga Islom iqtisodiyotini ham ifodalovchi sohaga ulkan hissa qo'sha oladi. Olimlar o'z tadqiqotlari davomida halol tushunchasining universal ta'rifini ishlab chiqqan, halollik va halol turizmga barqarorlik (sustainability) nuqtai nazaridan izoh bergan hamda halol turizm nuqtai nazaridan BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) mohiyatini aniqlashtirib bergan. Aytish mumkinki, mualliflarning tadqiqotlari halol sanoatining boshqa tarkibiy qismlari va barqaror rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan kengroq ilmiy izlanishlarga yo'l ochadi.

Shu o'rinda ziyorat turizmi tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarurati yuzaga keladi. Ziyorat turizmi — bu diniy qadriyatlar asosida shakllangan sayohat turi bo'lib, islomiy e'tiqodga ega insonlarning muqaddas joylarga bo'lgan sayohat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan turizm turidir. Mazkur turizm yo'nalishini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llash nafaqat shariat talablariga javob beruvchi xizmatlarni ko'rsatish, balki musulmon sayyohlarning ishonchini qozonish va ularga qulay hamda xavfsiz turistik muhitni yaratib berish uchun ham muhim hisoblanadi.

Mazkur jarayonda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan bir qator uslubiy asoslarni aniqlab oldik va quyida ularni ko'rib o'tamiz:

1. Shariatga muvofiqlik tamoyili
2. Halol sertifikatlash tizimini joriy etish
3. Halol turizm infratuzilmasini shakllantirish
4. Turistik mahsulot va xizmatlar tahlili
5. Halol madaniy kommunikatsiya
6. Mahalliy va xalqaro me'yorlarga muvofiqlik
7. Halol xizmatlar monitoringini yuritish va audit mexanizmlari

Xalqaro tadqiqotchi olimlar va turli institutlar tomonidan "halol" tushunchasiga berilgan ta'riflar bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi halollikning diniy, ya'ni islomiy jihatiga to'liq asoslanadi. Shu bilan birga, sifat kafolati, gigiyena talablariga rioya qilish va hayvonlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish kabi jihatlari ham ushbu ta'riflarda qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari, adabiyotlarda halol mahsulot va xizmatlarning barqarorlik (sustainability) jihatiga ham e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, mavjud ta'riflarning hech biri sanab o'tilgan barcha jihatlarni yagona konsepsiya sifatida birlashtira olmagan [4].

Xalqaro olimlar va xalqaro institutlar tadqiqotlari hamda xulosalaridan kelib chiqib, halol turizm tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik. Bizning fikrimizcha, halol turizm — bu islom dini shariat qoidalariga asoslangan holda musulmon sayyohatchilarga mo'ljallangan xizmatlar majmuini taqdim etuvchi kompleks turizm modeli bo'lib, unda diniy, axloqiy, gigiyenik, madaniy va texnologik mezonlar uyg'unlashgan. Mazkur turizm shakli sayyohlarning e'tiqodiy ehtiyojlarini qondirish barobarida, ularga sog'lom, xavfsiz, sifatli va ruhiy-ma'naviy jihatdan pokiza muhitda sayohat qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqotlar natijasida halol turizm standartlari tushunchasiga normativ-huquqiy yondashuv asosidagi, etik-axloqiy va barqarorlik asosidagi, hamda ijtimoiy-innovatsion va foydalanuvchiga yo'naltirilgan ta'riflarni ishlab chiqdik.

Demak,

- Normativ-huquqiy yondashuv asosida halol turizm standartlari — bu turistik xizmatlar va mahsulotlarning shariat normalariga muvofiqligini, iste'molchilar huquqlarini, madaniy hamda etnik e'tiqodga hurmat bilan munosabatda bo'lishni va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi, sertifikatlash va nazorat tizimlari bilan mustahkamlangan normativ-me'yoriy ko'rsatkichlar majmuasidir.

- Etik-axloqiy va barqarorlik nuqtai nazaridan halol turizm standartlari — bu shariat tamoyillari asosida inson sihat-salomatligi, hayvonlarga nisbatan mehr-muruvvat, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, ijtimoiy adolat, axloqiy me'yorlar va barqaror turizm qadriyatlarini o'z ichiga olgan xizmat ko'rsatish tamoyillari tizimidir.

- Ijtimoiy-innovatsion va iste'molchilar nuqtai nazaridan halol turizm standartlari — bu musulmon sayyohlarga mo'ljallangan, raqamli texnologiyalar, interaktiv xizmatlar va madaniy integratsiyani o'zida mujassam etgan, ishonchli, turizm iste'molchilariga qulay turistik tajribani shakllantiruvchi ko'p qirrali mezonlar tizimidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslarini o'rganish natijasida, tadqiqot davomida bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi hamda xulosalar ilgari surildi. Jumladan, ziyorat turizmini halol standartlar asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi 10 ta nazariy asos aniqlangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: fiqh (Islomiy huquq), halol turizm konsepsiyasi, madaniy-diniy qadriyatlar nazariyasi, halol iste'mol nazariyasi, barqaror turizm nazariyasi, ijtimoiy ishonch nazariyasi, servis



sifati nazariyasi, identitet nazariyasi, islomiy-iqtisodiy nazariya va halol marketing nazariyasi. Ushbu nazariya asoslar halol turizm tushunchasining ko'p qirrali va murakkab tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida xalqaro olimlar va institutlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlanmalar tahlil qilinarkan, halol turizm tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Bizning fikrimizcha, halol turizm — bu islom dini qoidalariga asoslangan holda musulmon sayyohatchilarga mo'ljallangan xizmatlar majmuini taqdim etuvchi, diniy, axloqiy, gigiyenik, madaniy va texnologik mezonlar uyg'unlashgan kompleks turizm modelidir. Mazkur model musulmon sayyohlarga nafaqat e'tiqodiy ehtiyojlarini qondirish, balki sog'lom, xavfsiz, sifatli va ma'naviy pokiza muhitda sayohat qilish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Vargas-Sánchez, A., & Moral-Moral, M. (2019). Halal tourism: Literature review and experts' view. *Journal of Islamic Marketing*, 11(3), 549–569.
- Abdusalomova, F. (2025). Buxoro viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari. *University Research Base*, 178–184.
- Awan, H. M., Siddiquei, A. N., & Haider, Z. (2015). Factors affecting Halal purchase intention – Evidence from Pakistan's Halal food sector. *Management Research Review*, 38(6), 640–660. <https://doi.org/10.1108/MRR-01-2014-0022>
- Azam, M. S. E., Abdullah, M. A., & Razak, D. A. (2019). Halal tourism: Definition, justification, and scopes towards sustainable development. *International Journal of Business, Economics and Law*, 18(3), 23–31.
- Choi, N. (2011). *Local Politics in Indonesia: Pathways to Power*. Abingdon, Oxon; New York: Routledge.
- Darsitun, D., Khariri, K., & Darajat, D. (2020). Women's Grave: Perspective of Hadith. *Journal of Hadith Studies*, 3(1), 14–22. <https://doi.org/10.32506/johs.v3i1.545>
- University of Warwick. (n.d.). *A Guide to Islam in Higher Education*. https://warwick.ac.uk/services/equalops/resources/guide_to_islam_in_he.pdf
- Effendi, D. et al. (2021). Preparing Halal tourism regulations in Indonesia. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 9(1), 6.
- Naimova, Sh. G'. (2025). Mintaqada ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. *IKRO jurnal*, 14(01), 157–162.
- Hussain, A., & El-Alami, K. (2007). *Islam Faith Guides for Higher Education: A Guide to Islam*.
- Jaelani, A. K. (2022). The standardization of Halal tourism management in West Nusa Tenggara. *Pena Justisia: Media Komunikasi dan Kajian Hukum*, 20(2).
- Junaidi, J. (2020). Halal-friendly tourism and factors influencing Halal tourism. *Management Science Letters*, 10(2), 1–8.
- Moaddel, M., & Talattof, K. (Eds.). (2002). *Modernist and Fundamentalist Debates in Islam: A Reader*. New York: Palgrave Macmillan.
- Zaynobiddinova, M. A. Q., & Sativaldiyev, A. K. (2023). Halol sertifikatlash jarayoni: muammolar va ba'zi yechimlar. *Science and Education*, (3). <https://cyberleninka.ru/article/n/halol-sertifikatlash-jarayoni-muammolar-va-ba-zi-yechimlar> (murojaat sanasi: 08–07–2025)
- Navruz-zoda, B. N., & Najmiddinov, S. N. (2020). Importance and role of ziyarah tourism in raising tourism potential of Bukhara region. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 3(2), 231–235.
- Nuraini, S. et al. (2021). Comparison of Halal food regulation and practices to support Halal tourism in Asia: A review. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, 733(1), 012044.
- Yuldoshev, N. O'. (2025). Indoneziyaning halol va smart turizmni rivojlantirish tajribalaridan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari. *Central Asian Journal of Academic Research*, 3(5–2), 19–22.
- Pacific, A. (2010). *Global Halal Industry: An Overview*. *Global Islamic Finance Report – 2013*, 140–159. http://www.gifr.net/gifr2013/ch_13.PDF
- Pamukcu, H., & Sariisik, M. (2021). Suggestions for standardization of Halal tourism in hospitality industry. *Journal of Islamic Marketing*, 12(2), 389–407.
- Saeed, A. (2018). Shari'a in Australia. In: Emon, A. M. & Ahmed, R. (Eds.), *The Oxford Handbook of Islamic Law* (pp. 751–774). Oxford: Oxford University Press.
- Sharifova, Sh. (2023). Halol restoranga ta'sir etuvchi omillar tavsifi. *Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali*, 4(12).
- Sharifboyeva, F. O. (2024). Ziyorat turizmini rivojlantirishda islom dinining ahamiyati. *International Sciences, Education and New Learning Technologies*, 1(6), 20–25. <https://www.musulmonlar.com/halol-va-haromni-kim-belgilaydi/>
- Stark, J. (2003). The Islamic Debate in Malaysia: The Unfinished Project. *South East Asia Research*, 11(2), 173–201.
- Miskam, S., Othman, N., Ab. Hamid, N., & Wan, N. A. (2015). An Analysis of the Definition of Halal: Shari'ah vs Statutes. *World Academic and Research Congress* (December).
- Yunus, B. M., Nor, M. R. M., Khoiruddin, H., et al. (2020). Isti'mār Al-Ard: The concept of prosperity for the Earth from Qur'anic perspective. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 5102–5116. <https://doi.org/10.37200/IJPR/V24I4/PR201609>
- Kun.uz <https://kun.uz/78090115>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>